

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SHEROBODLIK JANGCHILARNING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABADAGI QO'SHGAN HISSASI

Choriyev Raxmonberdi Yusufovich

Termiz davlat universiteti Yoshlar bilan ishlash,

ma'naviyat va ma'rifat bo'limi mutaxassisi

rychoriyev90@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-5664-0021>

UDK: 94(575.151):355

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyati Sherobod tumani farzandlarining fashizm ustidan qozonilgan g'alabadagi beqiyos hissasi arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Maqolada frontda jasorat ko'rsatgan M. Turayev, Y. Ismoilov, E. Xo'janov, U. Xolmurodov, U. Qurbonov hamda afsonaviy tankchi J. Boymatov kabi jangchilarning jangovar yo'li va urushdan keyingi mehnat faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, Sherobod, Surxondaryo, g'alaba, arxiv hujjatlari, Jovli Boymatov, Stalingrad, Berlin.

Аннотация: В данной статье на основе архивных документов и исторических источников освещается неоценимый вклад уроженцев Шерабадского района Сурхандарьинской области в победу над фашизмом в годы Второй мировой войны. В статье анализируется боевой путь и послевоенная трудовая деятельность таких бойцов, как М. Тураев, Ю. Исmoilov, Э. Хужанов, У. Холмуродов, У. Курбонов, проявивших мужество на фронте, а также легендарного танкиста Ж. Бойматова.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Шерабад, Сурхандарья, победа, архивные документы, Жовли Бойматов, Сталинград, Берлин.

Abstract: Based on archival documents and historical sources, this article highlights the invaluable contribution of the people of Sherabad district, Surkhandarya region, to the victory over fascism during World War II. The article analyzes the combat paths and post-war labor activities of such soldiers as M. Turayev, Y. Ismoilov, E. Khojanov, U. Kholmurodov, U. Qurbonov, and the legendary tank driver J.

Boymatov, who demonstrated exceptional courage on the front lines.

Keywords: World War II, Sherabad, Surkhandarya, victory, archival documents, Jovli Boymatov, Stalingrad, Berlin.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Insoniyat tarixidagi eng mudhish qirg'inbarot bo'lgan Ikkinchi jahon urushi tugaganiga 80 yildan oshgan bo'lsa-da, ushbu g'alabaga munosib hissa qo'shgan yurtodoshlarimizning ko'rsatgan jasorati va matonati hamon faxr bilan tilga olinadi. O'zbekiston xalqi front ortida tinimsiz mehnat qilib, frontda esa o'z jonini fido qilib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabani ta'minlashda beqiyos jasorat ko'rsatdi. Xususan, Surxondaryo viloyatining mard o'g'lonlari, jumladan, Sherobod tumani farzandlari ham urushning dastlabki kunlaridanoq jang maydonlariga otlandilar.

Sherobodlik jangchilar Stalingrad ostonalaridan boshlab, Ukraina, Belorussiya, Polsha va Germaniya tuproqlarigacha bo'lgan sharaflari, ammo mashaqqatli yo'lni bosib o'tdilar. Ularning orasida mohir merganlar, razvedkachilar, artilleriyachilar va frontda she'rlari bilan askarlar ruhini ko'targan ijodkorlar bor edi. Shuningdek, ko'plab yurtodoshlarimiz urushdan keyingi yillarda ham o'z xizmat faoliyatini huquq-tartibot organlarida davom ettirib, el-yurt osoyishtaligini saqlashda fidoyilik namunasini ko'rsatdilar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sherobodlik jangchilar orasida nafaqat front maydonlarida dushman bilan yuzma-yuz kelgan, balki urushdan keyingi og'ir yillarda ham el-yurt tinchligi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan insonlar talaygina.

Ana shunday mard o'g'lonlardan biri — militsiya serjanti Musurmonqul Turayevdir.

1922-yilda Sherobod tumanida dunyoga kelgan Musurmonqul Turayevning taqdiri murakkab va sharaflı yo'lnı bosib o'tdi. U 1942-yilning avgust oyida — urushning eng hal qiluvchi pallasi bo'lgan Stalingrad frontida jangga kirdi. Ma'lumki, Stalingrad jangi nafaqat Ikkinchi jahon urushining, balki butun insoniyat tarixidagi eng shiddatli to'qnashuvlardan biri bo'lgan. Musurmonqul Turayev aynan mana shu "o'tli qozon" ichida jasorat ko'rsatdi[3:77]. Jangovar harakatlar davomida u og'ir yarador bo'ldi va 1942-yilning oktyabridan 1943-yilning iyuliga qadar gospitalda uzoq muddat davolandi. Biroq, jarohatlar uni to'xtata olmadi. 1944-yilda u xizmatni davom ettirish uchun IIV qo'shinlari ixtiyoriga yuborildi. 1946-yilning oktyabriga qadar harbiy xizmat burchini ado etib, so'ngra o'zining ona yurti — Sherobodga qaytib keldi.

Musurmonqul akaning keyingi hayoti ham bevosita xalq xizmati bilan bog'liq bo'ldi. 1947-yildan 1972-yilga qadar, ya'ni chorak asr davomida u viloyat ichki ishlar idoralari tizimida fidokorona mehnat qildi. Uning ko'ksini bezab turgan medallar — G'alabani 25 va 50 yilligi esdalik nishonlari, "Sovet militsiyasining 50 yilligi" hamda I, II va III darajali "Benuqson xizmati uchun" medallari uning naqadar intizomli va sadoqatli xodim bo'lganidan dalolat beradi[4].

Sherobodlik mardlar orasida g'alabani dushman uyasi — Berlinda kutib olgan jasur jangchilar ham bor edi. Ulardan biri, keyinchalik ichki xizmat mayori darajasiga ko'tarilgan Yo'ldosh Ismoilovdir.

1924-yilda Sherobod tumanining Talloshqon qishlog'ida tug'ilgan Yo'ldosh Ismoilov 1942-yilda frontga safarbar etildi. Uning 1947-yilgacha davom etgan harbiy xizmati Ikkinchi jahon urushining eng shiddatli operatsiyalariga boy bo'ldi. Yo'ldosh Ismoilov Belorussiya, Pribaltika va Polsha mamlakatlarini nemis-fashist bosqinchilaridan ozod etishda qahramonlarcha ishtirok etdi. Uning jangovar marshruti 1945-yilning may oyida, olamshumul g'alaba kunlarida Berlinda yakunlandi.

Urushdan so'ng, 1948-yilda u o'z hayotini el tinchligini asrashga bag'ishlab, militsiya safiga ishga kirdi. Yo'ldosh Ismoilovning xizmat faoliyati keng qamrovli bo'lib, u 1948-yildan 1970-yilgacha Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Boysun va Sherobod tumanlarida militsiya uchastka vakili hamda pasport stoli boshlig'i kabi mas'uliyatli lavozimlarda ishladi.

Uning tashkilotchilik qobiliyati va boy tajribasi e'tiborga olinib, 1970-yildan 1985-yilgacha Angor tumani IIB yong'inga qarshi kurash bo'linmasining boshlig'i vazifasiga tayinlandi. Chorak asrdan ortiq vaqt davomida ichki ishlar idoralarida namunali xizmat ko'rsatgan mayor Ismoilov 1985-yilda nafaqaga chiqdi. Uning hayot yo'li — Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishning yorqin namunasidir[5].

Sherobodlik mard o'g'lonlarning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki geografiyasi keng bo'lib, ular orasida 1-Belorussiya frontining shiddatli janglarida toblangan askarlar ham bor edi. Ana shunday jangchilardan biri — Egamberdi Xo'janovdir.

1925-yilda Sherobod tumanida tug'ilgan Egamberdi aka 1942-yilda, hali 17 yoshida harbiy xizmatga chaqirildi. Uning jangovar faoliyati 1943–1944-yillarda 1-Belorussiya frontida o'tdi. Egamberdi Xo'janov 174-o'qchi diviziyasining 628-o'qchi polkida o'qchi sifatida xizmat qilib, fashizmga qarshi kurashning eng og'ir nuqtalarida matonat ko'rsatdi. Uning o'qchi sifatidagi mahorati dushmanga katta talafot yetkazishda muhim rol o'ynadi[6]. Urushdan keyingi tinch hayotda ham Egamberdi Xo'janov o'zining qat'iyati va tartib-intizomi bilan ajralib turdi. 1949-yildan boshlab u Termiz shahridagi 8-tergov muassasasiga ishga qabul qilindi. Bu yerda u nazoratchi, keyinchalik korpus bo'yicha katta xodim kabi mas'uliyatli lavozimlarda sadoqat bilan xizmat qildi. Egamberdi aka 1980-yilda nafaqaga chiqquniga qadar o'z burchini sidqidildan ado etdi.

Uning jangovar va mehnat yo'li davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Egamberdi Xo'janov "1941–1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun", shuningdek, I, II va III darajali

“Benuqson xizmati uchun” medallari hamda bir qator faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan[7].

Sherobodlik mardlar orasida nafaqat jasur sarkarda, balki qalbi otashin ijodkor sifatida tanilgan shaxslar ham bor edi. Ana shunday siymolardan biri — Umar Xolmurodovdir (1906–1966).

1943-yilning 6-martida harakatdagi armiya safiga chaqirilgan Umar Xolmurodovning urush yillaridagi faoliyati o'ta sharaflari va mashaqqatli kechdi. U 1-gvardiyachi havo desanti diviziyasi, 4-gvardiyachi havo desanti artilleriya polkida batareya komandiri o'rinbosari, keyinchalik esa batareya komandiri lavozimlarida xizmat qildi. Uning jangovar marshruti Novgorod oblastining Staraya Russa ostonasidan boshlanib, Sharqiy Yevropaning keng maydonlarini qamrab oldi.

Umar Xolmurodov Ukrainaning Kiyev, Chernigov, Korsun-Shevchenko, Cherkassk oblastlari, shuningdek, Moldaviya SSR, Ruminiya, Vengriya va Chexoslovakiya kabi davlatlarni fashist bosqinchilaridan ozod qilishda bevosita ishtirok etdi. 1944-yilning sentyabrida og'ir yarador bo'lishiga qaramay, haqiqiy o'zbek o'g'loniga xos matonat ko'rsatdi: quroldoshlaridan ortda qolmaslik uchun davolanishni to'liq tugatmasdanoq yana jang maydoniga qaytdi.

Umar Xolmurodov frontda nafaqat komandir, balki “jangchi-shoir” sifatida ham dovuq qozondi. Uning qalbida jo'sh urgan vatanparvarlik tuyg'ulari, frontdagi hayot va g'alabaga bo'lgan ishonchi she'riy satrlarga ko'chdi. Ushbu she'rlar o'sha yillari Surxondaryo viloyati va front gazetalarida muntazam chop etilib, askarlar uchun ma'naviy madad manbaiga aylandi. Janglarda ko'rsatgan qahramonliklari va xalq ruhini ko'tarishdagi xizmatlari uchun u bir nechta orden va medallar bilan taqdirlandi[1:165].

Sherobodlik mard o'g'lonlar orasida dushman ortiga o'tib, o'ta muhim topshiriqlarni bajargan, harbiy tilda aytganda "til" (asir) olib kelish bo'yicha mutaxassis bo'lgan shaxslar ham bor edi. Ana shunday dovyurak yurtodoshimiz — Ulash Qurbonovdir (1910–2000).

Ulash Qurbonovning jangovar hayoti 1943-yildan boshlandi. U dastlab aloqachi sifatida

xizmat qilgan bo'lsa-da, tez orada o'zining epchilligi va ziyrakligi bilan qo'mondonlik e'tiborini tortdi hamda razvedkachi vazifasiga o'tkazildi. Uning razvedka guruhlarini tarkibida dushman ichiga amalga oshirgan ko'plab xavfli safarlari har doim muvaffaqiyatli yakunlangan. Ulash akaning dushman ofitserlarini "til" sifatida asirga olib kelishdagi mahorati koalitsiya qo'shinlarining g'alabali yurishlarida muhim razvedka ma'lumotlarini ta'minlagan.

1944-yilning aprel-may oylarida u strategik ahamiyatga ega bo'lgan Sevastopol shahrini ozod qilish janglarida qatnashdi. Shundan so'ng, 2-Belorussiya fronti tarkibida Polsha va Germaniya tuproqlarini fashizm kishanlaridan xalos etishda jonbozlik ko'rsatdi.

Urush maydonlarida ko'rsatgan betakror jasorati va harbiy mahorati davlatimiz tomonidan munosib baholandi. Ulash Qurbonov 1-darajali “Vatan urushi” ordeni, 1-darajali “Shuhrat” ordeni va bir qator jangovar medallar bilan taqdirlandi. Uning o'tgan asr oxirigacha davom etgan hayot yo'li Sherobod yoshlari uchun haqiqiy mardlik va sadoqat timsoli bo'lib qoldi[8].

Sherobodlik mard o'g'lonlar orasida o'zining afsonaviy jasorati bilan nom qozongan qahramonlardan biri, shubhasiz, katta serjant Jovli Boymatovdir. Uning jangovar yo'li mardlikning eng yuksak cho'qqisi bo'lib, bu haqda hatto urush yillaridagi front gazetalarida ham hayrat bilan yozgan edi.

213-o'qchi diviziyasining “Za pobedu” gazetasining 1944-yil 5-dekabrda sonida katta leytenant V.Kamnev sherobodlik ushbu o'g'lon haqida shunday deydi: *“O'zbek Jovli Boymatov tankka qarshi otuvchi zambarakdan o't ochib, gitlerchilarga qiron keltirmoqda... U yovuz dushmanning 7 ta tankini yondirdi va safdan chiqardi”*.

Jovli Boymatovning jangovar marshruti 1943-yil mart oyidan, Shimoliy Donetsk daryosi bo'yidan boshlangan edi. U Xarkov va Merefa shaharlari bo'sag'asida Dnepr daryosidan birinchilar qatorida suzib o'tdi. Neday-voda qishlog'i yaqinidagi to'qnashuvda dushmanning ikki tankini va 80 ga yaqin askarini yo'q qildi. Shuningdek, u Ruminiya hududidagi janglarda hamda mashhur Yassi-Kishinyov operatsiyasida ham faol ishtirok

etib, dushmanning ko'plab to'p va minomyotlarini safdan chiqardi.

Biroq, uning eng buyuk jasorati 1945-yil 16-18-aprel kunlari Germaniyadagi Neyse daryosi bo'yidagi janglarda namoyon bo'ldi. 18-aprel kuni Jovli Boymatovning to'p raschyoti 16 ta dushman tanki madadida hujumga o'tgan fashistlar bilan yuzma-yuz keldi. Shiddatli to'qnashuv natijasida butun raschyot sostavi safdan chiqdi. Maydonda Jovli Boymatovning bir o'zi qoldi. Shunga qaramay, u chekinmadi! Yolg'iz o'zi zambarakdan o't ochishda davom etib, fashistlarning yana uchta tankini yakson qildi va dushmanning oltita qarshi hujumini qaytardi.

Ushbu shiddatli jangda Jovli Boymatov qahramonlarcha halok bo'ldi, ammo o'z pozitsiyasidan birorta ham fashistni o'tkazmadi. Marhum qahramonning jasadi bugun Germaniyaning Noder-Bezimyannaya tepaligida abadiy qo'nim topgan. Uning ko'rsatgan buyuk matonati 1943 va 1945-

yillarda 1-darajali "Vatan urushi" ordenlari bilan munosib taqdirlangan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sherobodlik jangchilarning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki va ko'rsatgan qahramonliklari xalqimiz tarixining shonli sahifalaridan biri bo'lib, bu tadqiqot orqali ularning Stalingrad ostonalaridan Berlin ko'chalarigacha bo'lgan mardona yo'li yana bir bor tasdiqlandi. Musurmonqul Turayev va Yo'ldosh Ismoilov kabi jangchilarning urushdan so'ng huquq-tartibot idoralaridagi samarali faoliyati, Umar Xolmurodovning frontdagi ma'naviy yetakchiligi hamda Jovli Boymatovning tanklar hujumiga qarshi bir o'zi ko'rsatgan mislsiz jasorati sherobodliklar tabiatidagi matonat va sadoqatning yorqin ko'rinishidir. Xulosa qilib aytganda, arxiv hujjatlarida muhrlangan bu taqdirlar nafaqat o'tmish xotirasi, balki bugungi yosh avlodni vatanparvarlik va mardlik ruhida tarbiyalashda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Soatov O., Tursunov S., Umarov I., Toshev K. Frontdan kelgan xatlar. –Toshkent: Tafakkur, 2020. – 320 b.
2. Soatov O., Tursunov S., Toshev K. Vatan yo'lida fidoyi jonlar. –Toshkent: Tafakkur, 2020. – 320 b.
3. Tursunov S., Pardayev T. Sherobod mehnatkashlarining Ulug' Vatan urushi yillarida ko'rsatgan jasorati. — Termiz, 1993. – 104 b.
4. Sherobod tuman davlat arxivi. 47-fond, 1-ro'yxat, 371-ish, 112-varaq.
5. Sherobod tuman davlat arxivi. 47-fond, 1-ro'yxat, 371-ish, 113-varaq.
6. Sherobod tuman davlat arxivi. 47-fond, 1-ro'yxat, 376-ish, 11-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 312-ish, 95-varaq.
8. Dala yozuvlari. Termiz shahri, 2022-yil, iyun.